



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI



**PEDAGOGIK INNAVATSION OQIMLAR VA MUAMMOLAR**  
FANINING O'QUV DASTURI  
(2-kurs)

|                    |          |   |  |
|--------------------|----------|---|--|
| Bilim sohasi:      | 100000   | - | Ta'lim   |
| Ta'lim sohasi:     | 110000   | - | Ta'lim   |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60110100 | - | Pedagogika va psixologiya<br>( <i>Qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi</i> ) |



|   |
|---|
| 3. <a href="http://www.google.uz">www.google.uz</a> .   |
| 4. <a href="http://www.fov.uz">www.fov.uz</a> .   |
| 6. Faning o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202_ yil " _ " dagi _ sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.   |
| 7. <b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b><br>F.A. Rahmatova Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasini mudiri,<br>pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  |
| 8. <b>Taqrizchilar:</b><br>To'raqulova I.X A. Qodiriy nomidagi JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent<br>Abrorxonova K Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasini mudiri p.f.f.d (PhD), dotsent |

| Fan/Modul kodi | O'quv yili  | Semestr | Kreditlar               |
|----------------|-------------|---------|-------------------------|
| 351PIOV.MI04   | 2022-2023   | II      | 4                       |
| Fan/Modul kodi | Ta'lim tili |         | Haftadagi dars soatlari |
| Majburiy       | O'zbek      |         | 2                       |
| 1.             |             |         |                         |
| 2.             |             |         |                         |

| Pedagogik innovatsion oqimlar va muammolar | Hammasi | Jami auditoriya | Ma'ruza | Amaliy | Seminar | Mustaqil ish |
|--|---------|-----------------|---------|--------|---------|--------------|
| 2-semestr                                  | 60      | 30              | 12      | 12     | 6       | 30           |
| Jami                                       | 60      | 30              | 12      | 12     | 6       | 30           |

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishning maqsadi** –Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim oluvchi talabalar, shu soha bo'yicha shug'ullanuvchi mutaxassislar, shuningdek turli ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o'qituvchi va tarbiyachilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda innovatsion ta'lim-tarbiyaning nazariy, tatbiqiy va tashkiliy masalalari yoritib berilgan.

**Fanni o'qitishning vazifalari** talabalarга tarbiya nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitishning nazariy ilmiy amaliy va metodologik asoslari haqida bilim berish, tarbiya fanini o'qitish ijtimoiy zarurat sifatida ilmiy amaliy asoslash fanni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanishning sifot samaradorligini oshi rishga oid bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Ta'lim tizimida innovatsiya. (2 soat)**  
Innovatsiya, innovatsion jaraen haqida tushuncha. Ta'lim jaraenida innovatsion ta'limning o'imi. Ta'limda "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "Innovatsion ta'lim" ning o'xshashlik tomonlari va farqi. Pedagogik ta'limda an'anaviylik va innovatsiya.

**2-mavzu. Rivojlanishning hozirgi sharoitida innovatsion faollik. (2 soat)**  
Ta'lim tizimida innovatsion faollikning zaruriyati. Ta'limning shaxsiy yo'nalishli xarakteri. Pedagogik ta'limni amalga oshirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli. Ta'limning ko'p darajali tizimi

**3-mavzu. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy. (2 soat)**  
Didaktikaning predmetini o'rgatish va o'rganishdagi uchta komponent. Ta'lim tizimining yangi bo'g'inlarida uchta komponentning vazifalari. Innovatsiyalarni to'plash jaraeni. Pedagogik innovatsiyalarni to'plovchi va qo'llovchilarning ahamiyati.

**4-mavzu. Yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari. (2 soat)**  
"Pedagogik tizim" va "Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish" tushunchalari va ularning bog'liqligi. Pedagogik tizimning tarkibiy qismlari. Pedagogik tizim modifikatsiyasi. Pedagogik tizimni takomillashtirishning ikki yo'li: intensiv,

ekstensiv yo'llar va ularning o'ziga xosligi. Pedagogik tizimda innovatsion tuzilmalarning bosh yo'nalishi.

### 5-mavzu. Rivojlanish rejimida ta'lim muassasalarini texnologik asosga o'tkazish. (2 soat)

Mazkur mavzuni o'rganishning zaruriyati. Ta'lim muassasalarini rivojlanish rejimiga o'tkazishning bosqichlari. Ta'lim muassasalarini rivojlanish rejimiga o'tkazish algoritmi "Muammoli maydon" ta'lim muassasalarini rivojlantirish dasturining asosi ekanligi. Muammoni qo'yish jarayoni.

### 6-mavzu. Refleksiv-innovatsion texnologiyalar. (2 soat)

Refleksiv innovatsiyalar va ularning to'rt bosqichi. Ta'limda yangiliklar kiritish mohiyati va ularning tahlili. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayarlash. Refleksiv innovatsion faoliyatda qulay innovatsion muhit yaratish.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib tashkiliy ishlarni o'tkazadi, auditoriyani darsga tayyorgarligi yozish va o'cherish vositalarining mavjudligi hamda o'quvchilarning davomati aniqlanadi. Amaliy mashg'ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiradi.

Amaliy mashg'ulotda ko'proq talabalar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o'qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, subbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko'proq mustaqil fikr yuritishga, o'z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o'rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabani faoliyatini tog'ri va xolisona baholashga erdishi zarur. Shuningdek, baholarni e'lon qilib faol o'quvchilarning familiyalarini aytib rag'batlantirishi va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan talabalarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulot darslarini dastur bo'yicha sifatli o'tilishini talabalar bilimining o'z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi uchun amaliy darslarda nimalar alohida e'tabor qaratilishi, ma'ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilgani va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib fikrlashib turishlari lozim.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, Keystar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

### III.1. Amaliy mashg'uloti mavzulari.

5.

### VI. Kreditlarni olish uchun talabalar.

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.

**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

### Yakuniy nazorat

Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabani yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

### VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

#### Asosiy adabiyotlar

1. Z.F. Sharopova. Ta'lim texnologiyalari. "Navro'z" nashriyoti. T.:2019, 342 bet.
2. Raxmatova F.A. To'raqulova M.A. O'qituvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishning pedagogik asoslari. "Lesson press" nashriyoti. T.:2022, 158 bet.
3. B. Qurbanov, R.G. Isyanov, G. B. Kurbanova, A.I. Avazbayev. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi. "Innovatsiya-Ziyo" T.:2022, 255 bet.
4. M.F. Hakimova. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Nazariya va amaliyot. – Toshkent–2018

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 130 Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyligining poydevori. –10T.: Sharq, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyligining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyligining poydevori. –T.: –Sharq 1998, 7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: 1998.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyligining poydevori. –T.: 1998.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: IMA naviyati 2008

#### Internet saytlari:

1. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

-darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rgana olish ko'nikmalariga;

-tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

-maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash; talabning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlari bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlarbo'limlari va mavzularni chuqur o'rganishi bildira olishni *malakalariga ega bo'ladi*.

## VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

### Grafik organayzerlar

Grafik organayzerlar ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilarini keltirilgan.

**1) BBB jadvali.** Barcha ma'ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftoriga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.

**2) Insert usuli.** Bu usul matnni o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" - zarur; "+" - yangi; "!" - e'tibor qiling; "x" - ortiqcha; "\*\*\*" - ko'chirish kerak; "?" - tushunarsiz va h.k.

**3) Aqliy hujum usuli.** Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida o'z g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarni ilgari suradi. Bosqichlari - muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g'oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

**4) Esse.** Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o'quv material bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

### Interfaol o'qitish usullari (Activity)

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

**1) «Tushunchalar tahlili» usuli.** Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O'qituvchi jamoaning fikrini yo'naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarining izohini chiqaradi. Talabalar o'z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.

**2) «Zinama-zina» usuli.** Talabalar mavzu bo'yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o'tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog'onalar tarzida ilib boriladi.

## 1 -mavzu. O'qituvchi innovatsion faoliyatida muammolarning ijodiy imkoniyatlarini dolzarblashtirish va rivojlantirish. (2 soat)

### Reja

1. Refleksiv - gumanistik endashishning asosiy aksiologik yutuqlari.
2. Uslubdan maqsad va uning bosqichlari.
3. Munozara mexanizmining uch guruhga ajratilishi.
4. Refleksiv-innovatsion amaliy dasturini tuzish.
5. Kreativlik darajasining uch ko'rsatkichi.
6. Innovatsion faoliyatga tayygarlikni belgilaydigan ko'rsatkichlar.

## 2-mavzu. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga tayyorligini tashxis qilish metodlari. (2 soat)

### Reja

1. Bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyatiga tayygarligini tashxis qilish zaruriyati.
2. Yangiliklarni tatbiq etishni tashxis qilish yo'llarini tahlil qilish.
3. Innovatsion faoliyatni tashxis qilishning uch bosqichi.
4. O'z faoliyatini tahlil qilish metodikasi. O'z-o'zini baholash xaritasi.
5. O'qituvchi kreativligini tekshirish.

## 3 -mavzu. Pedagogik ta'sir etish texnologiyasining muammolari. (2 soat)

### Reja

1. Pedagogik ta'sir etish texnologiyasini keng va tor ma'noda o'rganish.
2. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini sharq allomalari qarashlarida shakllantirish.
3. Kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlari.
4. Pedagogik texnologiyada ta'sir etish elementlari

## 4-mavzu. Pedagogik ta'sir etish texnologiyasining darsda qo'llanilishi. (2 soat)

### Reja

1. Pedagogik jaraenda ijodiy xamkorlikning rivojlanishi.
2. O'quvchining ob'ektdan ijodiy shaxsga aylanish jarayoni.
3. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro muloqotning yo'lga qo'yilishi
4. Darsning asosiy elementlari. Darsda rivojlanish uslubining ta'siri.
5. Pedagogik muloqotda sub'ekt-ob'ekt, ob'ekt-sub'ekt, sub'ektsub'ekt munosabatlari.

## 5-mavzu. Ta'limning asosiy qo'zg'atuvchi motivlari. Moshahuv strategiyasi. (2 soat)

### Reja

1. Ta'limda o'quvchi motivatsiyasini aniqlashning zaruriyati.
2. Darsda o'quvchini "ish axtarib qolishi", "tez chalg'iydi", "diqqatni jamlashtirmaydi", "tinib-tinchimas" kabi baholarni olish sabablari.
3. Qisqa muddatli tavsiyalar ishlash va uning ahamiyati.

4. Moslashtirish strategiyasi. Interfaol o'qitish usullari

**6-mavzu. O'qituvchi pedagogik faoliyatidagi psixologik to'siqlar. (2 soat)**  
**Reja**

1. Pedagogik faoliyatdagi psixologik to'siqlar haqida tushuncha.
2. Pedagogikada uchraydigan kognitiv va regulativ psixologik to'siqlar.
3. Himoyalashning barcha turlaridagi umumiy xususiyat.
4. Identifikatsiya – pedagog xulqini o'zlashtirish mexanizmlaridan biri

**III. 2. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

Seminar mashg'uloti talabalar bilimni chuqurlashtirib mustahkamlaydi. Har bir seminar mashg'ulotining rejalari va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati ishchi dasturda to'liq aks etadi. Shuningdek, seminar mashg'ulotlarining rejalari kundalik dolzarb ma'lumotlar bilan boyitiladi, kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

Ayniqsa fanlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarining savollari kundalik yangiliklar va senat Oliy majlis qarorlari, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bo'yicha materiallar bilan to'ldiriladi. O'qituvchi har bir amaliy-seminar mashg'ulot darsi uchun zarur ko'rsatmali va tarqatmali materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi zarur.

**III.2. Seminar mashg'uloti mavzulari**

**I-mavzu. Pedagogik tizimning metodologik asoslari. (2 soat)**

**Reja**

1. Pedagogik tizim tushunchasi va mohiyati.
2. Pedagogik tizimlarining rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlari.
3. Pedagogik jarayonlar va hodisalar tuzilmalarini taqdim etish turlari va shakllari

**2-mavzu. Pedagogik tizimlarni modellashtirish metodlari. (2 soat)**

**Reja**

1. Pedagogik jarayonlar va hodisalar tuzilmalarini taqdim etish turlari va shakllari.
2. Pedagogik tizimlarni modellashtirishga zamonaviy yondashuvlar
3. Pedagogik jarayonlarni kognitiv modellashtirish
4. Pedagogik tizimlarni sifatli tahlil metodlari.

**3-mavzu. Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlar tizimi. (2 soat)**

**Reja**

1. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarning tizimli tahlili: pedagogika sohasi (ixtisosliklar) bo'yicha dolzarb ilmiy-tadqiqot ishlari.
2. Oliy ta'lim pedagogikasining dolzarb muammolari. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari.
3. Doktorlik dissertatsiyalari muammolariga qo'yilgan talablar.
4. Doktorlik dissertatsiyalari mavzularini tanlash, ularning asosnomasi strukturasi.

**IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda

o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalar mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llarni berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

**IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Pedagogik tizimning metodologik asoslari
2. Pedagogik tizimlarni modellashtirish metodlari
3. Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlar tizimi
4. O'qituvchi pedagogik faoliyatidagi psixologik to'siqlar
5. Ta'limning asosiy qo'zg'atuvchi motivlari. Moslashuv strategiyasi
6. Pedagogik ta'sir etish texnologiyasining muammolari
7. Pedagogik ta'sir etish texnologiyasining muammolari
8. O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligini tashxis qilish metodlari
9. O'qituvchi innovatsion faoliyatida muammolarning ijodiy imkoniyatlarini dolzarblashtirish rivojlantirish
10. Ta'lim tizimida innovatsiya
11. Refleksiv-innovatsion texnologiyalar
12. Rivojlanish rejimida ta'lim muassasalarini texnologik asosga o'tkazish
13. Yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari
14. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy
15. Rivojlanishning hozirgi sharoitida innovatsion faollik

**V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- ta'lim mashg'ulotlarida talabalar fan predmetiga oid bilimlarni o'zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash metodikasi tufayli talabalar fandan mukammal bilim oladilar, pedagog kasbini egallash uchun jiddiy tayyorgarlikdan o'tadilar.
- ta'lim mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar tavsiya qilingan adabiyot materiallarini qunt bilan o'rganib chiqishi, oliy ta'lim pedagogikasi muammolariga doir ma'ruza yoki referat tayyorlashi; amaliy topshiriqlarni bajarishi, rivojlanishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqidagi **bilimga**;

Talaba mavzuni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: